



KICHIK MAKTAB YOSHIGAGI O'QUVCHILARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

¹G'aniyeva Xalimaxon Axmatxonovna

Farg'ona davlat universiteti, psixologiya kafedrası dotsenti,

²Ahmadjonov Nurmuhhammad Nabijon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti, psixologiya kafedrası o'qituvchisi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7957092>

ARTICLE INFO

Received: 14th May 2023

Accepted: 21th May 2023

Online: 22th May 2023

KEY WORDS

Yosh davri, yoshi va psixologik xususiyatlari, tarbiyaviy tadbirlar, axloqiy tushunchalar, ta'lim jarayoni.

ABSTRACT

Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlari, o'quvchi shaxsining xususiyatlariga va uning muayyan davrdagi psixologik holatiga mos tarbiyaviy vositalarni tanlash va yangi vositalarni topish, o'quvchilarning yosh xususiyatlari, bilimi va turmush tarzi, o'quvchilardagi mujassamlashgan ahloqiy tushunchalar saviyasini aniqlash maqsadida o'tkazilgan tajribalar to'g'risida bayon etilgan.

Mavzuning dolzarbligi. Yosh avlodni har tomonlama yetuk ahloqli, odobli kishilar sifatida kamol toptirish muhim vazifadir. Ma'lumki o'quvchilar shaxsini shakllantirish ishlarini namunali yo'lga quyish uchun avvalo ularning xarakter hislatlarini qanchalik tarkib topganligini aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Kirish. Har bir o'quvchi axloqiy tushunchalarni qanday o'zlatirganini aniqlamay ular bilan yakkama-yakka munosabatga kirishish mumkin emas. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ishonuvchan, tashqi ta'sirotlarga beriluvchan bo'ladilar.

Buyuk allomalarimiz tahkidlaganidek kishining fe'l-atvori hammadan ko'ra ko'proq hayotining dastlabki yillarida tarkib topadi va unda shu davrda paydo bo'lgan sifatlar-mustahkam o'rnashib kishining ikkinchi tabiatiga aylanadi. Insonning ikkinchi tabiatida ijobiy hissiyotlarni, fazilatlarini tarkib toptirish, yuksak ahloq normalarni shakllantirish uchun butun mashuliyat boshlang'ich sinf o'qituvchisining zimmasiga tushadi. Bolaning mazkur yosh davrida o'qituvchining har bir gapi, har bir xatti-harakati, ta'sir ko'rsatish uslubi uning uchun haqiqat mezonini vazifasini bajaradi. Chunki o'quvchilar o'qituvchilariga qattiq ishonadilar, uning fikr-mulohazalariga quloq soladilar, pedagogik nazokatidan jiddiy ta'sirlanadilar, talablariga hamisha amal qiladilar, u bergan topshiriqlarni bekami-ko'st bajarishga intiladilar. Ana shu davrda o'qituvchi uchun: a) o'quvchilarning ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatish, ijobiy his-tuyg'ulari va ezgu niyatlarini qo'llab-quvvatlash; b) ularni atrofdagi kishilarga yordam berishga undash, to'g'ri mulohaza yuritishga o'rgatish, noma'qul qiliqlardan tiyish, tabiat manzaralarini kuzatishga va musiqa tinglashga odatlantirish; v) ularga nimalar bilan shug'ullanish kerakligini, burch hassini tushuntirish; g) ular bilan o'qilgan kitoblarni, ko'rilgan tomoshalarni muhokama qilish imkoniyati tug'iladi.



O'qituvchining o'quvchilar bilan mazmunli suhbatlar o'tkazishi, ularni g'aroyibotlar olamiga olib yurishi, faollik sari yetaklashi alohida ahamiyat kasb etadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning axloqiy sifatlarini rivojlantirishda ko'zlangan maqsadga erishish uchun ularning yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olish shart.

Ma'lumki, o'quvchilarning psixologik xususiyatlari har xil bo'lib, bir o'quvchiga muvaffaqiyat bilan ko'llangan tarbiyaviy ta'sir vositasi boshqa biriga qo'llanilganda kutilgan natijani bermasligi mumkin. Tarbiyaviy tadbirlar o'quvchilarga yakkama-yakka yondashib amalga oshirilsa, yaxshiroq; samaraga erishilishi, shubhasizdir.

Mana shunday yondashishda o'quvchi shaxsining xususiyatlariga va uning muayyan davrdagi psixologik holatiga mos tarbiyaviy vositalarni tanlash va yangi vositalarni topishni talab kiladi. Bunda o'qituvchining o'quvchilarga g'amxo'rliqi, pedagogik odobi, o'z xatti-harakatining natijasini oldindan ko'ra olishi muhim rol o'ynaydi.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish o'qituvchi o'quvchilarning xususiyatlarini qanchalik o'rganganiga bog'liqdir. Ta'lim jarayonida har bir o'quvchining psixik dunyosiga oqiloni yo'l topa olish muvaffaqiyatlarning garovidir.

Materiallar va metodlar. O'quvchilardagi mujassamlashgan axloqiy tushunchalar saviyasini aniqlash maqsadida ularga sentyabr oyining 3-haftasida maxsus alohida savollar berildi. Tajriba uchun 2 ta: yaxshi va yomon ahloqiy tushuncha tanlab olindi. Ular kundalik turmush sharoitida keng qo'llaniladigan tushunchalar ekani sababli o'rganish rejalashtirildi. Ahloq xuddi shu so'zlardan boshlanadi, chunki ularning zamirida insonning murakkab ahloqiy qiyofasi, hislati, barqaror emasligi yotadi.

Tajribada o'quvchilarga berilgan savollar ularning yosh xususiyatlari, bilimi va turmush tajribalarini hisobga olib tuzildi.

Birinchi sinf o'quvchilariga quyidagi savollar berildi:

1. Nima yaxshi-yu, nima yomon?
2. O'zidan kattalarga savol beradigan, ularning aytganlarini baja-radigan bolalar qanday bolalar?
3. «Xo'p» degan yaxshimi yoki «yo'q» degan yaxshimi?- va hokazo.

Birinchi savolga ko'pchilik o'quvchilar «Quyvon yaxshi, bo'ri yomon», «Echki yaxshi, bo'ri yomon», deya javob qaytardilar. Yu.M.ning javobi boshqalardan keskin farqlandi: u mantiqiy izchillik bilan o'z fikrini bildirdi: «Echki yaxshi - u sut beradi. Tulki yomon. U odamlarni aldaydi». Demak, u yaxshi tushunchasi uchun muhim belgi sifatida insonga foyda keltirishni tanlagan bo'lsa, yomon tushunchasi zamirida esa aldash alomati yotadi. Aldash salbiy hislat ekanligini anglagan, uning yomon illatligini payqay olgan va hayvonlarga (hatto, odamlarga) ziyon keltirishini asoslagan. O'quvchining mulohazasidan birinchi savolga javob berishning o'zidayoq sinaluvchilar o'rtasida farqlar bo'lganligini ko'rish mumkin.

Ikkinchi savolga o'quvchilar «Yaxshi bolalar», deb umumiy javob qaytarganlar. Mazkur savolga deyarli barcha bolalar javob bergan bo'lsalar-da, lekin mulohaza yuritish ko'lamining qamrovi, javobning faktlarga boyligi bo'yicha ularning javoblarida tafovut ko'zga tashlanadi.

Uchinchi savolga ayrim o'quvchilarning: «Xo'p deyish - yaxshi, u yordamlashadi», «Xo'p degan so'z yaxshi, «Yo'q degan - yomon, u aldaydi, topshiriqni bajarmaydi», deb javob qaytarganlar.



Natijalar. O'quvchilarning ko'pchiligi mazkur savollar bo'yicha munozarada faol qatnashdilar va fikrlarining ravonligi Ma'lum darajada kengligi bilan boshqa tengdoshlaridan ajralib turdilar. Ayniqsa, Muhayyoning mulohazasi har tomonlama ustunligini ko'rsatdi. Aniqlanishicha, qizchanning oilaviy muhitida bunga zarur shart-sharoitlar yaratilgan.

Birinchi sinfdagi tajribalarda o'quvchilar bildirgan fikrlar bilan ular o'zlashtirgan ahloqiy tushunchalar orasida ayrim tafovutlar mavjudligi ko'rildi.

Ikkinchi sinf o'quvchilaridagi ahloqiy tushunchalar saviyasini aniqlash uchun ularga quyidagi savollar berildi: «Nima yaxshi-yu, nima yomon?», «Odobli bola deganda qanday bolalarni tushunasan?», «Odob haqida qanday shehrlarni bilasan?»

Birinchi savolga ko'p o'quvchilar «Kattalarga quloq solish, onasiga yordamlashish, darsni o'z vaqtida tayyorlash yaxshi. Yolg'on gapirish, kattalarni aldash, dars tayyorlamaslik yomon», «Chumchuqlarni otmaydigan, yolg'on gapirmaydigan, kattalarni hurmatlash – yaxshi», «Daftar va kitoblarni yirtish – yomon» deya javob qaytardi. Javoblar ikkinchi sinf o'quvchilari birinchi sinf o'quvchilariga nisbatan mantiqli va mazmunli fikrlash, fikrlarni bayon qilish bo'yicha ustunligini ko'rsatadi. Ularning javoblarida yaxshi tushunchasining mohiyatini kengroq yoritildi: quloq solish, yordamlashish, dars tayyorlash, chumchuqlarni otmaslik, yolg'on gapirmaslik yaxshiligi aytiladi. Bolalar yomon tushunchasini qiyosiy ta'riflaganlarida: yolg'on gapirish, aldash, dars tayyorlamaslik, kitoblarni yirtish va hokazolarga ehtibor berdilar. Ular o'z fikrlarini bildirishda bir-birlarini takrorlamadilar. Lekin tushunchalarni to'g'ri anglashlariga qaramay, ularning mohiyatini ochishda javoblar muayyan darajada farqlandi, ammo tajribalar bir necha bor takrorlangach bu farq kamayishi yaqqol ko'rindi.

Ikkinchi savolga o'quvchi Umida: «Ukasining sochi-dan tortmaydi. Toza polni iflos qilmaydi», - deb, Muborak esa «Odobli bola ko'chaga ruxsatsiz chiqmaydi, o'z vaqtida choy ichadi, uy ishlariga qarashadi, dars tayyorlaydi», - deb javob qaytardilar. Birinchi sinf talabachining javobida cheklanganlik borligini ko'ramiz: «sochdan tortmaydi va polni iflos qilmaydi». Keltirilgan ikkita namuna bir-biridan Ma'lum darajada farqlanib, u odob haqidagi shehrlar keltirilganda yanada ortadi.

Tajribada uchinchi sinf o'quvchilarimiz quyidagi savollar berildi: «Nima yaxshi-yu, nima yomon?», «Eng go'zal narsa nima?», «Eng xunuk narsa-chi?», «Odob nima?».

Ko'pchilik o'quvchilar birinchi savolga: «Odobli bola yaxshi, yomon bola yomon», «Odobli bola kattalarga salom beradi. Ularni hurmat qiladi. Yomon bola gap qaytaradi. Keksalar yomon bolalarni yuktirmaydilar». «Non olib kelish yaxshi. Aytganlarini qilish yaxshi». «Pol artmaslik, uy supurmaslik – yomon» kabi javoblarni qaytardilar.

Mazkur o'quvchilar yaxshi va yomon tushunchalarini murakkablashgan shaklda qo'llashga harakat qildilar va odobli bolaning xarakter hislatini yana boyitdilar. Odobli bola salom berishini va hurmat qilishini aytdilar. Yomon tushunchasining mohiyatini yanada kengaytirib: u gap qaytaradi, uni keksalar yoqtirmaydi, - dedilar. Umumiy mulohazalardan o'quvchilar o'rtasida Ma'lum darajada tafovut bo'ladi, deya xulosa chiqarish mumkin.

Uchinchi sinf o'quvchilarining ayrimlarigina ikkinchi va uchinchi savollarga javob berdilar: «Bog'da har xil gullarning ochilishi chiroyli, go'zal. Shu gullarni so'ramasdan uzish, ularni sindirish xunuk», «Mevali daraxtlarning bahorda gullashi juda chiroyli, lekin ularni



yulish va uzib tashlash xunuk», «Tandirda yopilgan issiq nonlar chiroyli», «Shu nonlarni sindirib erga tashlash xunuk» va hokazo.

Xulosa. Yuqoridagi savollar psixologik asosga ega bo'lib, ular o'quvchilarning ahloqiy tushunchalarini aniqlashga qaratilgani sababli atrof-muhit, ijtimoiy hayot, shaxslararo munosabat yuzasidan har tomonlama bilimni talab qilar edi. Bunda «yaxshi» va «yomon» tushunchalari «go'zal» va «xunuk» singari ahloqiy tushunchalar bilan uyg'unlashib ketgan. Masalan, sinaluvchilar «gullarning ochilishi, daraxtlarning gullashi, issiq nonlar – chiroyli», «gullarni sindirish, uzib tashlash, nonlarni isrof qilish – xunuk» degan xulosa chiqardilar. Aytilgan mulohazalardan ko'rinib turibdiki, sinaluvchilar tushunchalarning mohiyatini ochishga ham har xil yondashadilar. Bizningcha, o'quvchilar mazkur tushunchalar yuzasidan bildirgan fikrlar mazmundorligining asosiy sabablari-o'quvchilarning tabiatshunoslik faniga qiziqishi, ongli o'quv motivi, aqliy ishlarining faolligidir.

Uchinchi sinf o'quvchilarining odob tuo'risidagi fikr va mulohazalari mazmuni, shakli va tuzilishi bilan I va II sinf o'quvchilarining fikr-mulohazalaridan farqlanadi. Buning sababi ularning turmush tajribasi ko'lamini kengroqligi, yosh xususiyatlari va aqliy kamolot darajasi yuqog'iroqligidir. Yosh davri xususiyatiga bog'liq farq bilan birga narsaga turlicha qarash, har xil yondashish, muammo mohiyatini ochib berish uslubi bo'yicha ham farqlar mavjuddir. I-III sinf o'quvchilari bilan o'tkazilgan tajribalar ularda ahloqiy tushunchalarni tarkib toptirish uchun avvalo har bir tushunchaning muhim alomatini qaratishni, umumlashtirishni, ikkinchi darajali belgilarni topishni o'rgatish zarurligini ko'rsatdi.

References:

1. G'aniyeva Xalimaxon Axmatxonovna //PSYCHOLOGICAL FUNDAMENTALS OF THE SOCIAL ENVIRONMENT IN PERSONAL DEVELOPMENT// EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Volume1 Issue02, May 2021. 717-724 pages.
2. Тошболтаева Нодира Иброхимжонова //ШАХС ТАРАҚҚИЁТИДА ТАФАККУРНИНГ АҲАМИЯТЛИЛИГИ МАСАЛАЛАРИ// Международный научный журнал «Научный импульс». № 5 (100), часть 2. Декабрь, 2022. 196-199 стр.
3. Тошболтаева Нодира Иброхимжонова //БИЛИШ ЖАРАЁНЛАРИ РИВОЖЛАНИШИДА ШАХСНИ ТАРАҚҚИЙ ЭТИШИ// JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH VOLUME-2, ISSUE13 (26-December). 472-475.
4. Тошболтаева Нодира Иброхимжонова, Тошболтаев Салоҳиддин Ҳамидуллаевич //МУСТАҚИЛ ТАФАККУР ЖАРАЁНИНИ ИБН СИНО ТАЪЛИМОТИДА ТАҲЛИЛИ// Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке». № 6 (100), часть 2. январь, 2023 г. 114-118 стр.
5. Toshboltayeva Nodira Ibrohimjonovna //The importance of thinking in the complex process of individual activity// International conference on Studies in Humanities, Education and Sciences. January 10 th,2022. 69-70 pages.
6. Ahmadjonov Nurmuhammad Nabijon o'g'li //KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA TAFAKKUR HAQIDAGI NAZARIY QARASHLAR// IJODKOR O'QITUVCHI JURNALI. 5 MAY/ 2023 YIL/ 29 – SON. 232-238 betlar.



7. Ahmadjonov Nurmuhammad Nabijon o'g'li //KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNING TAFAKKUR OPERATSIYALARI RIVOJLANISHINI NAZARIY JIHATDAN O'RGANILISHI// IJODKOR O'QITUVCHI JURNALI. 5 MAY/ 2023 YIL. 29 – SON. 239-246 betlar.
8. Ahmadjonov Nurmuhammad Nabijon o'g'li //KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA TAFAKKUR JARAYONLARINING XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISHI// SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI. 9-SON. 13.04.2023. 420-426 betlar.
9. Ahmadjonov Nurmuhammad Nabijon o'g'li //PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE FATHER'S RELATIONSHIP IN PERSONS WITHDIFFERENT DEGREE OF DEPENDENCE// "PEDAGOGS" international research journal. Volume-24, Issue-3, Decembe. 2022. 124-127 pages.
10. Ahmadjanov Nurmuhammad //FEATURES OF COGNITIVE PROCESSES SUCH AS PERCEPTION, MEMORY, THINKING IN STUDENTS OF JUNIOR SCHOOL AGE// Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке». № 10 (100), часть 2. май, 2023. 383-389 стр.
11. Ahmadjonov Nurmuhammad Nabijon o'g'li //KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA IDROK, XOTIRA, XAYOL KABI BILISH JARAYONLARINING XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISHI// Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке». № 10 (100), часть 2. май, 2023. 390-395 стр.
12. Ahmadjonov Nurmuhammad Nabijon o'g'li // KICHIK MAKTAB DAVRIDA TAFAKKUR RIVOJLANISHI DARAJASINI EKSPERIMENTAL O'RGANISHNING PSIXOLOGIK TAVSIFI// Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке». № 10 (100), часть 2. май, 2023. 396-401 стр.
13. Ahmadjonov Nurmuhammad //DEVELOP STUDENTS' THINKING SKILLS IN THE LEARNING PROCESSBASICS// *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*. Volume 2, Issue 1, Jan, 2021. 15-21 pages.
14. **Ahmadjonov Nurmuhammad, Sobirjonova Masturabonu** //8-9 YOSHDAGI BOLALARDA GEOMETRIK MATERIALLARNI O'RGANISH ORQALI AQLIY OPERATSIYALARNI SHAKLLANTIRISH// 3rd International Multidisciplinary Scientific Conference on Ingenious Global Thoughts Hosted from Kuala Lumpur, Malaysia May 31. [Vol. 25 No. 1 \(2021\)](#). 182-188.
15. Ahmadjonov Nurmuhammad Nabijon o'g'li //PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE FATHER'S RELATIONSHIP IN PERSONS WITHDIFFERENT DEGREE OF DEPENDENCE// "PEDAGOGS" international research journal. Volume-24, Issue-3, Decembe. 2022. 124-127 pages.
16. А.Абдуллаева Н.Тошболтаева //ОНГ ВА ТАФАККУР БУЗИЛИШЛАРИ// FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES: a collection scientific works of the International scientific conference. 13 April 2023. Part 18. 27-32 pages.
17. Ganieva Khalimakhon Akhmatkhonovna //PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF GENIOLOGY ASSIGNMENT IN YOUNG PEOPLE// GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) Vol. 9, Issue 12, Dec.(2021) 335-337 pages.
18. Ibrokhimjonovna T.N. PERSONAL EDUCATION AS A MAIN BASIS OF SOCIETY'S DEVELOPMENT //Academia Globe: Inderscience Research. – 2021. – Т. 2. – №. 03. – С. 1-2.



19. Тошболтаева, Нодира Иброхимжоновна. "Важные аспекты упражнений в умственной деятельности психологическая интерпретация." INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION 1.5 (2020): 97-99 pages.
20. A.R.Abdullayeva //THE SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL INFLUENCE OF THE FAMILY ON THE FORMATION OF A HEALTHY LIFESTYLE// International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers. Volume-11. Issue3. 2023. 670-674 pages.
21. А.Абдуллаева, Н.Тошболтаева //ОИЛА ВА НИКОҲ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛОВЧИ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАР// INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION International scientific-online conference. 23 rd January, 2023. – Canada, Ottawa. 136-140 pages.
22. Абдуллаева А. //ОИЛАНИ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛОВЧИ ФАКТОРЛАРНИ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ// МУАЛЛИМ ЖУРНАЛИ. 11 ЖИЛД. 2022 ЙИЛ.
23. Ahmadjonov Nurmuhammad Nabijon o'g'li //KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA TAFAKKUR OPERATSIYALARI RIVOJLANISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARGA BOG'LIQLIGI// FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES: a collection scientific works of the International scientific conference. 13 May 2023. Part 19. 312-319 pages.
24. Eleonora Topvoldievna Mirzajonova, Odinoxon Raxmanovna Parpiyeva //Modern Special Preschool Education: Problems and Solutions// Journal of Pedagogical Inventions and Practices. Vol. 9. 06-2022. 100-106 pages.
25. A.R.Abdullayeva //PSYCHOLOGICAL FACTORS OF FORMING A HEALTHY LIFESTYLE IN THE FAMILY// ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. Volume 4, Issue 3 March, 2023. 43-50 pages.
26. Юнусова Гўзал Султоновна //ЎСМИР ЁШЛИ БОЛАЛАРНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА МАЪНАВИЙ ЖИҲАТДАН ТАЙЁРЛАШДА ОНА ШАХСИНИНГ ТАЪСИРИ// EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Innovative Academy Research Support Center. Volume 3. Issue 5, Part 3. May 2023. 69-75 pages.
27. Юнусова Гузаль Султановна, Исроилов Абдоржон Ахатжон угли //ИЗУЧЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ В ИССЛЕДОВАНИЯХ УЗБЕКСКИХ УЧЕНЫХ// Образование и инновационные исследования 2022 год. № 5. 284-287 стр.
28. G.S.Yunusova //THE OUTCOMES OF A STUDY PREPARING BOYS AND GIRLS AT YOUNG AGE FOR FAMILY LIFE IN CONDITION OF UZBEKISTAN// The Way of Science. 2021. № 6 (88). 84-87
29. Yunusova G. S. //THE OUTCOMES OF A STUDY PREPARING BOYS AND GIRLS AT YOUNG AGE FOR FAMILY LIFE IN CONDITION OF UZBEKISTAN// The Way of Science. 2014. С. 84.
30. Юнусова Гузаль Султоновна, Турдиматова Елноза Эркинжоновна //РОЛЬ СЕМЬИ В ПРОЯВЛЕНИИ АГРЕССИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ// Образование и инновационные исследования. 2022 год № 11. 378-381 стр.
31. Юнусова Гузаль Султановна //Развитие воображения молодежи и подростков, воспитывающихся в благополучных и неблагополучных семьях// Theoretical & Applied Science. № 6 (2).2013. 91-94



32. Юнусова Гузаль //Особенности взаимоотношений родителей с детьми-подростками в полных и неполных семьях// Молодой ученый. 2015. № 13 (93). С. 757-760.
33. Yunusova Guzal Sultanovna // [THE INFLUENCE OF THE MOTHER'S PERSONALITY IN RAISING THE SPIRITUAL CONSCIOUSNESS OF ADOLESCENTS](#) // American Journal of Interdisciplinary Research and Development. Jun 9, 2022. 5, 111-115.
34. Yunusova Guzal Sultanovna //PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF CRIME PREVENTION AMONG TEENAGERS (FAMILY ASPECT)// American Journal of Interdisciplinary Research and Development, Oct 22, 2022. 9, 266-273.
35. Гўзал Султоновна Юнусова, Исроилов Абборжон Ахатжон ўғли // [ЎЗБЕКИСТОНЛИК ОЛИМЛАРНИНГ ТАДҚИҚОТЛАРИДА ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАР МУАММОСИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ](#) // Таълим ва инновацион тадқиқотлар. 2022 йил № 5. 284-287
36. Г.С.Юнусова //ВЛИЯНИЕ ВНУТРИСЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ГОТОВНОСТЬ К СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ ДЕТЕЙ// The Way of Science. 2018. № 2 (48). 77-79
37. Г.С.Юнусова //РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ МОТИВАЦИИ ПО ОТНОШЕНИЮ К ПОДДЕРЖКЕ И ОДОБРЕНИЮ У ДЕТЕЙ ПОДРОСТКОВОГО И ЮНОШЕСКОГО ВОЗРАСТА, ВОСПИТЫВАЮЩИХСЯ В ПОЛНЫХ И НЕПОЛНЫХ СЕМЬЯХ// Социальные науки и общественное здоровье: теоретические подходы, эмпирические исследования, практические решения: материалы III международной научно-практической конференции 20-21 апреля 2013 года. Прага. 83-87.
38. Pulatova Gulnoza Murodilovna, Muhammadjonov Jahongir Zokirjon o'g'li //5-6 YOSHLI MAKTABGACHA YOSHDAG'I BOLALARNING NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA ERTAK VA MAQOLLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI// EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Innovative Academy Research Support Center. Vol 3. Issue 5, Part 3. May 2023. 48-58 pages.